



2022-yil 16-17-iyun

Uchquduq tumani

PRESS-RELIZ

2022-yil 16-17-iyun kunlari “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati Shimoliy kon boshqarmasi bo‘linmalarida olib borilayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida, ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun press-tur va matbuot anjumani o‘tkazildi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining o‘rni va salmog‘i katta. “NKMK” AJning respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **13 foizdan** ortiqni tashkil etishi, davlat byudjetiga jami tushumlarining ulushi esa **20 foizga** yaqinligi, 2021-yilda kombinat jahondagi oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalar reytingida **5-o‘rinni** egallaganligi ta’kidlab o‘tildi.

Shuningdek, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan e‘lon qilingan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021-yilda kombinat respublikamizda eng ko‘p sof foyda olgan va davlat ulushi bo‘yicha eng ko‘p dividend to‘lagan korxonalar ekanligi hamda Moliya vazirligi tomonidan e‘lon qilingan yirik soliq to‘lovchilarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tushumlaridagi ulushining 2022-yil prognoziga ko‘ra, “NKMK” AJning ulushi **20,2 foizni** tashkil qilishi qayd etildi.

Press-tur davomida OAV vakillari va jurnalistlar “NKMK” AJning Uchquduq tumanida joylashgan **3-gidrometallurgiya zavodi, “Sharqiy” koni, Avtomobil transporti boshqarmasida** bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlari va amalga oshirilayotgan loyihalar bilan yaqindan tanishdilar va ishchi-xodimlar bilan suhbatlashdilar. Shuningdek, press-tur ishtirokchilari tumandagi “Bedor ota” ziyoratgohida bo‘lishdi hamda ular uchun Uchquduq shahrida tungi sayr uyushtirildi.

Bugungi kunda **8 ming** nafardan ortiq ishchi-xodimlar, shu jumladan, **2,5 ming** nafarga yaqin yoshlar hamda **1,1 ming** nafardan ziyod xotin-qizlar mehnat qilayotgan Shimoliy kon boshqarmasi kombinatning yirik bo‘linmalaridan biridir.

Kon boshqarmasi bo‘linmalarida ishchi-xodimlarning ratsionalizatorlik takliflarini ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish muhim o‘rin egallaydi. Xususan, 2021-2022-yillarda ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etilgan **44 ta** ratsionalizatorlik taklifning iqtisodiy samarasi **34 mlrd so‘mni** tashkil etdi.

3-gidrometallurgiya zavodi – mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida foydalanishga topshirilgan konchilik va metallurgiya sohasidagi birinchi yirik sanoat korxonasidir. Mazkur zavod mutaxassislari olimlar bilan hamkorlikda olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasida 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati tarixida ilk marotaba NKMK mutaxassislari murakkab tarkibli, qayta ishlash qiyin bo‘lgan ma‘danlardan oltin ajratib olishning yangi texnologiyasini yaratganliklari uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Butunjahon intellektual mulk tashkilotining oltin medaliga sazovor bo‘lishdi. 2019-yilda zavodda chiqindilarini qayta ishlashga mo‘ljallangan filtrlash, quritish va quydirish bo‘yicha yangi yuqori texnologiyalarga asoslangan majmua ishga

tushirildi. Yangi texnologik jarayonni amalga oshiradigan jihoz va uskunalari uchun kombinat va “Engineering Dobersek GmbH” kompaniyasi mutaxassislari birgalikda Germaniya davlatining xalqaro patentini qo‘lga kiritdi. Yangi loyiha tabiiy resurslardan to‘liq foydalanishni ko‘paytirish va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish hamda chiqindiga chiqib ketadigan oltin miqdorini ikki baravar kamayish imkonini berdi. Umuman olganda, zavod ishga tushirilgan yilga nisbatan korxonaning ma‘dan qayta ishlash bo‘yicha yillik unumdorligi **6 barobardan** ko‘proq, oltinni yarim tayyor holatida ishlab chiqarish esa **5 barobar** oshdi. Bugungi kunda 3-gidrometallurgiya zavodida yiliga **8 mln tonnadan** ortiq “Kokpatas” va “Dovgiztov” konlaridan qazib olingan oltin tarkibli ma‘dan qayta ishlanadi.

“Sharqiy” koni mustaqil O‘zbekiston tarixidagi dastlabki konlardan biridir. Konda yiliga **4 mln tonna** sulfidli ma‘dan qazib olinadi. Kondan qazib olingan ma‘dan 3-gidrometallurriya zavodida qayta ishlanadi. “Sharqiy” konida ma‘dan qazib olishda ishlatiladigan konchilik texnikalarning barqaror ishlashini ta‘minlash, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida, ekskavatorlarga videokuzatuv qurilmalar o‘rnatilganligi texnika ishlashini doimiy nazorat qilish imkonini berdi. Hozirgi kunda konda **1,1 ming nafardan** ortiq ishchi-xodimlar mehnat qilishmoqda.

Shimoliy kon boshqarmasining Avtomobil transporti boshqarmasida **200 dan** ortiq “Caterpillar”, “Komatsu”, “BelAZ”, “MAN”, “MAZ” rusumli zamonaviy konchilik texnikalari va transport vositalari mavjud. Keyingi yillar mobaynida boshqarma texnika parki zamonaviy avtoag‘dargichlar bilan yangilandi. 2020-yilda Avtomobil transporti boshqarmasida faoliyat yuritayotgan kadrlar bilimini oshirish va qayta tayyorlash uchun xizmat ko‘rsatadigan o‘quv-darsxonasi foydalanishga topshirildi. Shuningdek, boshqarmada “Komatsu” rusumli avtoag‘dargich haydovchilarining malakasini oshirish uchun simulyator ishga tushirildi. Mazkur simulyatorida olib boriladigan o‘quv mashg‘ulotlarida haydovchilar amaliy tajribalarini oshirish bilan birga zamonaviy konchilik texnikasining imkoniyatlarini ham o‘zlashtirmoqdalar.

Eng muhimi, bugungi kunda zavod va konlarni mahalliy kadrlar boshqarmoqda. Erishilayotgan barcha yutuqlarda ularning hissalari katta bo‘lmoqda. 3-gidrometallurgiya zavodida o‘tkazilgan matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga Shimoliy kon boshqarmasi, kon va zavod rahbar va mutaxassislari tomonidan atroflicha javoblar berildi.

Murojaat uchun ma’lumotlar:

“NKMK” AJ matbuot xizmati, Ish telefonlari: +99879 227-75-88, +99879 227-74-73

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: www.ngmk.uz

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

t.me/ngmkofficial, www.fb.com/ngmkofficial, [instagram.com/ngmk.official](https://www.instagram.com/ngmk.official), www.youtube.com/nkmkofficial